

TARJIMADA LEKSIK ALMASHTIRUVDAN FOYDALANISH



Bolliyeva Shodiya Rustam qizi
TerDu talabasi +998947077818
bolliyevashodiya0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimonlik transformatsiyalarining biri bo‘lgan Almashtiruv turining Leksik almashtirushi haqida so‘z boradi va leksik almashtiruvning turlari va bu turlar turli namunalar bilan tushuntirilib berilgan .

Kalit so‘zlar: Tarjimonlik transformatsiyalari , leksik almashtiruv, konkretlashtirish, umumlashtirish, sabab - natija , ekvivalent.

Almashtiruvning bu turida asl matn tilining leksik birliklari (so‘zlar va so‘z birikmali) tarjima tilida boshqa , ularning lug‘aviy ekvivalentlari bo‘lmagan leksik birliklari bilan almashtiriladi. Bunday almashtiruvda uchta hol uchraydi — konkretlashtirish , umumlashtirish, sabab- natija munosabatlariga asoslangan almashtiruv (natijaning sabab bilan ,sababning natija bilan almashtirilishi) . [3.P27]

Bu uchta holat bo‘yicha tushuntirishni davom etar ekanmiz, har biriga alohida to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Birinchi bo‘lib konkretlashtirishdan boshlaymiz.

Konkretlashtirish deb asl matn tilidagi ma’nosini keng so‘z va so‘z birikmalarining tarjima tilidagi ma’nosini tor bo‘lgan so‘z va so‘z birikmali bilan almashtiruvga aytildi .

Konkretlashtirishning ikki turi turini farqlash mumkin: tilga oid konkretlashtirishi va kontekstual konkretlashtirishni . [3.P27] Tilga oid konkretlashtirishda ma’nosini keng so‘zning ma’nosini tor so‘z bilan almashtirushi ikki tilning qurilishidagi mavjud farqlarga bogliq boladi. Birinchidan, tarjima tilida asil matndagi leksik birlikka ma’nosini kengligi jihatidan mos keladigan leksik birlik yo‘q bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ikki tilidagi leksik belgilarning stilistik xususiyatlari bir-biriga to‘g’ri kelmasligi mumkin.

Uchinchidan, bunday almashtiruvning sababi grammatik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Biz konkretlashtirish va uning turlari bilan tanishib chiqdik endi uni misollar bilan tushuntiramiz .

Masalan : Ingliz tilida do fe’li ko‘p ma’nolarda qo‘llaniladi. Act, perform, or undertake kabi tarjimalari bor [13]. Tarjima jarayonida biz uni o‘zbek tilidagi turli so‘zlar bilan konkretlashtirishimiz mumkin : ishlamoq , tozalamoq , yuvmoq va hakozolar . Keling biz buni gaplarda tahlil qilib chiqamiz .

-Will you do the room?

- Sen xonani nima qilasan ?

Bu noaniq bo'lib qoldi hamma uchun, shuning uchun tarjima jarayonida uni
“ Sen xonani tozalaysanmi ?”

deb berishimiz mumkin. Asliy matndagi do tarjimada konkretlashtirishib
tozalaysanmi bo'lyapti.

Yana misollar ko'radigan bo'lsak, ingliz tilidan

-What do you do? ni

-Sen nima qilasan

deb tarjima qilamiz va buni yana ham aniqroq qilib

“Sening kasbing nima?”

deb tarjima qilishimiz maqsadga muvofiqdir .Bu yerda do fe'li kasb ma'nosida
konkretlashyapti .

Kontekstual konkretlashtirish asl matn tili va tarjima tili o'rtasidagi sistemali
farqlarga bog'liq bo'lmasdan, balki konkret kontekstga, stilistik xususiyatlarga,
masalan, gapni tugallash zarurligi , takrorlashlardan qutilish ,obrazlilik , anqlikka
erishish maqsadga bog'liq bo'ladi. [3.P28] Umulashtirish deb konkretlashtirishga
qarama - qarshi bo'lgan hodisaga aytildi : ma'nosi tor so'zlar tarjimada ma'nosi keng
so'zlarga almashtiriladi . Masalan : “Men oilam uchun sho'rva , manti , palov
pishirdim” gapini tarjima jarayonida “ I make a meal for my family”. deyishimiz
mumkin . Bu yerda sho'rva ,manti , palov tor ma'nodagi so'zlar bo'lib ularni keng
ma'noda meal ya'ni ovqat so'zi bilan umumlashtirilib ifodalashimiz mumkin .

Shuningdek , “I look after dogs ,cats ,goats” ni o'z ona tilimizga tarjima qilar
ekanmiz “Men uy hayvonlariga g'amxo'rlik qilaman” shaklida berishimiz mumkin.
Ya'ni bu yerda dogs, cats, goats umumlashtirilib uy hayvonlari bo'lib kelyapti.

Natijaning sabab bilan ,sababning natija bilan almashtirilishi bu — bir qaragandan
tushunarsiz va murakkab tuyilishi mumkin , ammo siz- biz o'ylaganchalik emas.
Bunga ta'rif beradigan bo'lsak, tarjima jarayonida sodir bo'ladigan leksik almashtiruv
turli tushunchalar orasida mavjud bo'lgan sabab - natija munosabatlariga asoslangan
bo'lishi mumkin. Masalan asl matnda ma'lum bir ish - harakat, hodisa yoki holatini
ifodalovchi leksik birlik tarjima matnida ushbu ish harakat , hodisa yoki holatni emas,
balki uning sababini ko'rsatuvchi leksik birlikka almashtiriladi.[3.P30]

Masalan : I don't blame it . Men uni tushunaman tarzda tarjima qilinadi.

Bu misolda tarjima matnida asl matndagi ish - harakatning sababi ko'rsatilgan :
Men uni ayblamayman chunki men uni tushunaman .

Shuningdek,

-He passed exam with a high score .

Bu misolni biz “ u qattiq o'qiydi “ deb tarjima qilamiz , ya'ni uning imtihondan
yaxshi natija bilan o'tishining sababi uning qattiq o'qishidadir . (U imtihondan yuqori

baho bilan o'tdi chunki u qattiq o'qiydi .) Endi sababning natija bilan almashishiga misol : A computer didn't work . Men uyga vazifani bajara olmadim. Bu misolda Kompyuter ishlagaganligi (sabab bo'lyapti) sababli, men uyga vazifani bajara (bajara olmagani natija bo'lyapti) olmadim .

Leksik almashtiruv tarjima jarayonida matnning aniqligi va chiroyli chiqishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U matnni tarjima tilida tushunarli va uslubiy jihatdan mos bo'lishiga yordam beradi. Uning 3 ta turi bor : konkretlashtirish, umumlashtirish va sabab-natija va har biri turli maqsad va kontekstlarda ishlatalidi: Konkretlashtirish: Asl matndagi keng ma'noli so'zlarning tor ma'noli so'zlar bilan almashtirilishi.

Umumlashtirish: Tor ma'noli so'zlarning keng ma'noli so'zlar bilan almashtirilishi.Sabab-natija almashtiruvi: Biror hodisa yoki harakatning sababi va natijasi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi almashtirish.

Ushbu almashtirish usullari tarjima tilida lug'aviy moslik yo'qligi, uslubiy farqlar yoki grammatik talablardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, konkretlashtirish va umumlashtirish matnni yanada aniqlashtiradi, sabab-natija almashtiruvi esa mantiqiy va semantik bog'liqlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda ,leksik almashtiruv tarjima jarayonida tushunarilikni oshirish, matnning tabiiyligini saqlash va ikki til o'rtasidagi tafovutlarni muvozanatlash uchun asosiy vositalardan biridir. Ushbu usulni samarali qo'llash tarjimonning til va madaniyatga oid bilimiga, shuningdek, matn kontekstini chuqr tushunishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
- 2.Oxford Advanced Learner's Dictionary, 10th edition (app edition)
Version 1.0.2374
Web: www.oxfordlearnersdictionaries.com
3. Allayorova .R.R "Tarjima nazariyasi va amaliyoti " Urganch 2008 .
4. " The adventures of Sherlock Holmes " Arthur Conan Doyle, 2004 p. 55
- 5.Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. JournalNX, 40-43.
6. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ, 34.

7. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. Philological research: language, literature, education, 4(4), 73-76.

8. Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. Interpretation and Researches, (8)(30). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
9. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
10. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
11. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
12. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.
13. Vocabulary.com, Inc. A division of IXL Learning